

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi
_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti

MAKTABGACHA TA'LIM PSIXOLOGIK

_____ ning

_____ bog'lolmashtirish davri 2025-yil
_____ un, iyul va avgust oylari uchun

ISH REJASI

Maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologining yozgi sog'lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari:

Ma'lumki, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda uning sabablariga alohida e'tibor beriladi. Chunki, artikulyatsion motorika harakatchanligining yetishmasligi va fonematik idrokning rivojlanmaganligi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi hammaga ma'lum.

Dastavval, artikulyatsion motorikani harakatchanligi oshirish ishlaridan boshlash lozim. Fonematik idrokni shakllantirish va rivojlantirish ishlari esa tovushni nutqqa qo'yish va mustahkamlash ishlari bilan parallel ravishda olib boriladi.

Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

U tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning nutqi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyatning chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi.

Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o'zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi.

Bundan tashqari, kichik yoshdagi bolalarning moslashuvini tashkil qilish bo'yicha psixologlarning tavsiyalarini inobatga olish hamda "Onam bilan birga" moslashuv guruhlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi Farmonida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom, jismoniy barkamol rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi, kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish, sog'lomlashtirish, chiniqtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, o'quv yili mobaynida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ushbu davrda bolalar bilan o'tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va ko'tarinki o'tishini ta'minlash, turli ko'ngilochar tadbirlar, kichik sayrlarni muntazam tashkillashtirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, quyosh, havo, suv muolajalarini o'rinli qo'llash, charchoqyozdi mashqlar va alohida belgilangan kun tartibiga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi.

Mazkur metodik tavsiyada barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bola(*tarbiyalanuvchi*)lar bilan yozgi sog'lomlashtirish davrida

(*1-iyundan 31-avgustgacha*) o'tkaziladigan sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish ko'rsatilgan.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida bolalar o'quv yili davomida olgan bilimlarida yuzaga kelgan bo'shliqlarini inobatga olgan holda, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (*3-ilova. Numunaviy o'quv reja*)ga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayoni umumiy guruhlarda va erkin o'yin faoliyati orqali rivojlantirish markazlarida (*4-ilova. Namunaviy yillik mavzuli reja*) tashkil etiladi va tarbiyalanuvchilar olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Yozgi sog'lomlashtirish ish rejasini shakllantirishda tashkilot hududiy joylashuvi, bola yosh xususiyatlari va shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv inobatga olinadi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida amalga oshiriladigan tashkiliy, metodik, sog'lomlashtirish hamda nazoratga doir chora-tadbirlar rejasini tashkilotning navbatdagi pedagogik kengashida tasdiqlanadi.

Tashkilotning yozgi sog'lomlashtirish davri ish rejasida ta'lim-tarbiya, sog'lomlashtirish-chiniqtirish, hamkorlik ishlari, sport va ko'ngilochar tadbirlar, tashkiliy ishlar (*obodonlashtirish, moddiy-texnik bazani boyitish*) aniq belgilab olinadi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida (*iyunning birinchi haftasida*) pedagog xodimlar "Bolalar xavfsizligi va sog'lig'ini muhofaza qilish" yo'riqnomasi bilan

tanishtiriladi hamda direktor o'rinbosari, hamshira, jismoniy tarbiya yo'riqchisining yozgi davr uchun ish rejasini ishlab chiqiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari samarali o'tkazilishi maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining o'z vaqtida va puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq.

Bu davrda bolalarning sog'ligini mustahkamlash uchun bor imkoniyatlardan foydalanib maydonchalarni va rivojlantirish muhitini tayyorlash, barcha tadbirlarni bolalarni rivojlanishi va ularni chiniqtirishga qaratish lozim.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining maqsad va vazifalari

Yozgi sog'lomlashtirish davrining maqsadlari:

Bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash;
jismoniy, aqliy va ijtimoiy salomatligini mustahkamlash, ularning kognitiv, kommunikativ, psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
sog'lomlashtirish va chiqniqtirish tadbirlarini tashkil etish;
tabiat qo'ynida dam olish orqali ijobiy emotsional holatini yaxshilash va ularni hayotga faol tayyorlash;
bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish;
yozgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini, ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta'minlash;
sayr va kuzatish jarayonlarida muammolarni hal qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish;
bolalarning rivojlanish sohalari va tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonining samarali shakli va usullaridan foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining vazifalari:

bolalarning salomatligi va jismoniy rivojlanishini yaxshilash, ularni axloqiy tarbiyalash, qiziquvchanlik va bilim faolligini rivojlantirish, madaniy-gigiyenik va mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish;
bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni, bolalarning sayrda mustaqil, ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratish;
bolalarning sog'lomlashtirish va dam olishlarini ta'minlash;
tabiiy omillardan (*havo, quyosh, suv*) keng foydalanish hisobiga bolalarni sog'lomlashtirish, chiqniqtirish va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish;
tabiat qo'ynida (*gulzor, bog', tajriba maydonchasi, ekologik yo'lakcha*) mehnatni tashkil etish, bilish faoliyati, turli xil ta'limiy-tarbiyaviy va harakatli o'yinlarni tashkil etish, amaliy kuzatish, tajriba-eksperimentlar, samarali ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun tabiiy muhit (*sharoit*)dan foydalanish;
sog'lom turmush tarziga odatlantirish;
sog'lom va xavfsiz ovqatlantirish;
o'quv yili davomida olingan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish;
xavfsizlik xatti-harakat ko'nikmalarini takomillashtirish;
ota-onalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, sog'lomlashtirish tadbirlarini uyda davom ettirishlari bo'yicha pedagogik va sanitariya-targ'ibot ishlarini amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarga jalb qilish.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrida pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning dam olishi va jismoniy rivojlanishiga boʻlgan ehtiyojini taʼminlashdir.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrining asosiy ustuvor yoʻnalishlari:

jismoniy tarbiya va sogʻlomlashtirish ishlari;

madaniy va dam olish tadbirlari.

Maktabgacha taʼlim tashkilotining yozgi davrga tayyorligi mezonlari:

oʻyin va jismoniy tarbiya maydonchalarini SanQvaM talablari asosida jihozlanishi, bolalar hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilish boʻyicha koʻrsatmalarga rioya qilinishi;

yozgi davr uchun ish rejasi, bolalar hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilish, tashkilot hududiga yaqin joylarga xavfsizligini taʼminlagan holda ekskursiyalar va sayohatlarni tashkil etish, bolalarni zararli oʻsimlik va boshqa narsalar bilan zaharlanishining oldini olish boʻyicha koʻrsatmalar, ichimlik bilan taʼminlash rejimini tashkil etish, davolash-profilaktika tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazish boʻyicha hujjatlar, pedagog va ota-onalar uchun turli tavsiyalar va maslahatlar;

oʻyin maydonchalarida joylashgan qum qutilaridagi qum gigienik talablarga javob beradigan yangi qum bilan har yili (*bahorda*) toʻliq almashtirish;

qumning ifloslanishini oldini olish uchun yopiq holda saqlanishi (qopqoqlar yoki polimer bilan, plyonkalar, tentlar yoki boshqa himoya vositalari).

qum va bolalar maydonchasini oʻz vaqtida tozalash, namlantirish va oʻyinchoqlar bilan taʼminlash uchun sharoit yaratish;

bolalar bilan yozgi sogʻlomlashtirish davrini tashkil etishni nazorat qilish tizimining mavjudligi.

Sport, harakatli oʻyinlar, sport musobaqalari, ekskursiya va boshqalarni oʻtkazish, shuningdek, sayrlar davomiyligini oshirish tavsiya etiladi.

Sogʻlomlashtirish jarayoni samarali boʻlishiga erishish uchun kun tartibiga bolalarning ochiq havoda maksimal darajada boʻlishlari, yoshga mos uyqu va dam olishi nazarda tutiladi.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrida foydalaniladigan anjom va jihozlar:

suv, loy va qum bilan oʻynaladigan oʻyinchoqlar va h.k;

qoʻl yuvish uchun suv, bir martalik sochiqchalar (*salfetka*), chiqindilar uchun chelak va h.k ;

nafas gimnastika oʻyinlari uchun jihozlar (*aylanalar, qogʻoz pirpiraklar, lentalar*) va h.k;

voqeaband va teatrlashtirilgan oʻyinlar uchun jihoz va qoʻgʻirchoqlar va h.k;

sport oʻyinlari uchun jihozlar (*xalqalar, keglilar, badminton, arqonchalar, har xil kattalikdagi toʻplar va h.k*);

stol bosma oʻyinlari va h.k;

tabiat qoʻynida mehnat qilish uchun kerakli jihozlar toʻplami (*kurakcha, belkurak, supurgi, hokandoz, xaskash, suv sochadigan joʻmrakli chelakchalar va h.k*);

qo‘l mehnati uchun kerakli ashyolarning qog‘oz qutilarda bo‘lishi (*rangli va rangsiz qog‘ozlar, bo‘yoq, plastilin andozalar, bo‘yash uchun kitobchalar, sochiqchalar va h.k*);

badiiy adabiyotlar;

teatr uchun turli sahna va jihozlar (*to‘shama, shirma, pardalar va boshqa atributlar*).

Maydon va ayvonchalarga olib chiqiladigan jihozlarning xavfsizligi (*singan, o‘tkir qirrali va teshilgan joylari yo‘qligi*) tekshirilib, har kuni sayrdan keyin yuviladi, quritiladi va quti yoki savatlarga joylanadi. Sayrdan so‘ng har bir jihoz ko‘zdan kechiriladi.

Sayr va o‘yinlardan so‘ng ayvoncha, maydoncha va bolalar uychalari tozalanadi, suv bilan yuviladi.

Qum tozalanib, elanib, nam holatda saqlanishi ta‘minlanadi. O‘yindan so‘ng qum usti g‘ilof bilan yopiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida yozgi sog‘lomlashtirish davriga tayyorgarlik barcha xodimlar tomonidan o‘z lavozim vazifalariga muvofiq amalga oshiriladi.

“Tasdiqlayman”
_____-maktabgacha
ta’lim tashkiloti direktori:

“ _____ ” _____2025-yil

____-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti logopedining yozgi sog‘lomlashtirish davri uchun olib boriladigan ishlar

T/R	Ish mazmuni	Mas’ul	O’tkazish shakli	Kutilgan natija
Umumiy jamiyati				
1	Yoz davrida olib borilgan ishlar hisoboti.	Logoped	Yozma	Sarhisob
2	MTTdagi nutqida kamchiliklarni tarbiyalanuvchilar bilan yozma shaklda olib borilgan ishlar hisoboti.	Logoped	Yozma	Sarhisob
3	Logoped yillik ishlari yozma kengashda kengashlash va muhokama qilish.	Iyun	Logoped	Tahlil muhokama
4	Tarbiyalanuvchilarning mustaqil nutqini tekshirish va boyligini tekshirish.	Har hafta	Logoped	Tahlil muhokama

	ish qurollari, cholgʻu asboblari, uy jihozlari, transport vositalari, meva, sabzavotlar, gullar, uy va yovvoyi hayvonlar, qushlar va uy parrandalari, hasharotlar nomini bilish				
LOGOPEDIK					
5	MTT ga yangi qabul qilingan tarbiyalanuvchilarning «Tovush talaffuzini tekshirish» - bolaning tovush talaffuzini tekshirish	Avgust oyining 1-15 kuni	Logoped, psixolog Tarbiyachi Ota-onalar	Suhbat, tushuntirish ishlari orqali	Tarbiyalanuvchilar ning nutqini rivojlantirish
6	"Yozgi sogʻlomlashtirish" davrida lugʻat boyligini tekshirish ruhiy holatini tahlil qilish	Avgust oyining 16-31 kuni	Tarbiyachi Logoped	Suhbat	Tarbiyalanuvchilarning lugʻat boyligini oshirish
7	"Yozgi sogʻlomlashtirish" davrida tarbiyalanuvchilarni Tavakkuliyatni tekshirish diqqatni jamlash oʻyinini mustahkamlovchi tafakkur oshirish tiruvchi oʻyin	Har hafta	Tarbiyachi Logoped	Suhbat	Tarbiyalanuvchilarning tafakkurini boyitish
Metodik kun					
8	Yangi oʻquv yili uchun tayyorgarlik	Avgust oyi oxirlari	Logoped	Yillik reja asosida	Yangi oʻquv yiliga tayyorgarlik namunadagidek tashkil etish

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

37 listdan iborat defektolog yoz davr ish rejani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.